


2-topshiriq. Mavzu: Genetika asoslari. Jins bilan bog'liq irsiylanish.

Muammo: Ma'lumki, odamlarda gemofiliya (qon ivimasligi) kasalligi jinsiy X- xromosoma bilan bog'liq resessiv gen orqali irsiylanadi. Quyidagi oila shajarasini tahlil qiling.

Quyidagi sxemada gemofiliya kasalligining avloddan-avlodga o'tishi ko'rsatilgan.



Vazifa: 1. Sxemadagi shartli belgilarga asoslanib, I va II avloddagi ota-onalarning genotiplarini aniqlang.

2. Nima uchun I avloddagi ota-onalar sog'lom bo'lsa-da, ularning o'g'li (II-2) gemofiliya bilan kasallangan? Bu gen unga kimdan o'tgan?

3. III avloddagi sog'lom qiz (III-3) ning tashuvchi bo'lish ehtimoli necha foiz? Javobingizni Pinnet katagi yordamida isbotlang.